



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,  
2-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili .....	16
<b>Salim Doniyorov</b>	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish .....	21
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</b>	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich</b>	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Yunusov Dilshod Raxmatovich</b>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
<b>Aliqulova Habiba Bahranovna</b>	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri .....	36
<b>Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi</b>	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli .....	41
<b>Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna</b>	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
<b>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
<b>Asqarova Ma'mura Sadriddinovna</b>	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati .....	59
<b>Atajanova Xurjon Pirnazar qizi</b>	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend .....	64
<b>Murtozayeva Nigora Murtoza qizi</b>	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
<b>Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna</b>	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari .....	69
<b>N. A. Musayeva</b>	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari .....	76
<b>Odiljonova Kamola Abduvosit qizi</b>	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching .....	81
<b>Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari .....	84
<b>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</b>	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati .....	87
<b>Raxmanova Dilnoza Farmanovna</b>	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari .....	90
<b>Shamshaddinova Saodat Saparbayevna</b>	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti .....	93
<b>Shamuratov Asqar Abdullayevich</b>	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi .....	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения .....	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	



# AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING ADABIY TAHLIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH



Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich  
 Angren universiteti katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Xoldarova Gulchehra Tajibayevna  
 Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistri

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari yoritiladi. Zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni chuqur tahlil qilish, interaktiv muloqot olib borish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, adabiy tahlil, kompetensiya, analitik fikrlash, Google Books, Project Gutenberg, AI asosida matn tahlili.

**Abstract:** Effective methods for developing students' literary and analytical competence in a digital learning environment are examined. The study highlights the use of modern pedagogical and information-communication technologies to foster independent thinking, in-depth text analysis, interactive communication, and creative skills.

**Key words:** digital learning, literary analysis, competence, analytical thinking, Google Books, Project Gutenberg, AI-based text analysis.

**Аннотация:** Рассматриваются эффективные методы развития литературно-аналитической компетентности обучающихся в условиях цифровой образовательной среды. Особое внимание уделяется использованию современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий, способствующих формированию самостоятельного мышления, углублённого анализа текста, навыков интерактивного общения и творческого подхода.

**Ключевые слова:** цифровое обучение, литературный анализ, компетентность, аналитическое мышление, Google Books, Project Gutenberg, анализ текста с использованием AI.

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya qilish va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar asosan ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi. Axborot inqilobi zamonaviy jamiyat hayotiga tez kirib kelib, uning turli sohalar faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirdi.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda ko'plab ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq raqamli strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim jarayonini raqamli tashkil etish, o'quvchi va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, jamiyatni raqamlashtirishni peda-

<sup>1</sup> Yuldoshev R.R. (2022). Digitalization of higher education: prospects and risks. Law and Practice, (1), 94-102.

gogik tadqiqotlarning asosiy mavzulari sifatida belgilash zarur. Elektron “aqlli” qurilmalar va sensorlar, bulutli texnologiyalar, ilg'or tahliliy vositalar kabi rivojlangan texnologiyalar ta'lim mazmunini o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Adabiy tahlil kompetensiyasi – bu o'quvchining badiiy matnni tushunish, g'oya va mazmunni anglash, obrazlar tizimini tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli ta'lim muhiti va uning pedagogik jarayonga ta'siri masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylangan. Yuldoshev R.R. 2022-yilda oliy ta'limni raqamlashtirish jarayonining istiqbollari va xavflarini tahlil qilib, raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, yangi metodik yondashuvlarni talab qilishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, raqamli vositalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi va bu ayniqsa adabiy tahlil jarayonida samarali natija beradi.

Shuningdek, Pashkova A.F. va Abdurassulova N.A. 2022-yilda ta'limni raqamlashtirish muammolari va istiqbollarini o'rganib, raqamli platformalar o'quvchilarning faolligini oshirish, interaktiv muhit yaratish va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qilishini asoslab beradi. Ularning tadqiqotida ta'lim jarayonida interaktiv vositalardan foydalanish orqali tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkinligi alohida qayd etiladi. Bu yondashuv adabiy asarlarni chuqur tahlil qilishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Umarova M.X. 2020-yilda O'zbekiston ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilib, raqamli texnologiyalar ta'lim muassasalarida yangi ijtimoiylashuv shakllarini yuzaga keltirishini ko'rsatadi. Muallif ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu esa adabiy tahlil kompetensiyasining shakllanishida muhim nazariy asos bo'lib, raqamli muhitda matnni chuqur anglash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlar bir necha usullar orqali yig'ildi. Avvalo, raqamli ta'lim muhitida adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish jarayonini aniqlash maqsadida kuzatish usulidan foydalanildi, bunda o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, interaktiv platformalardan foydalanish darajasi va matn tahlilidagi yondashuvlari tahlil qilindi. Shuningdek, so'rovnomalar usuli orqali o'quvchilarning raqamli vositalarga munosabati, ularning analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari haqidagi fikrlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tavsifiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, an'anaviy va raqamli yondashuvlar samaradorligi solishtirildi. Natijalarni umumlashtirishda statistik umumlashtirish hamda interpretatsiya usullaridan foydalanilib, o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab olindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

#### Adabiy tahlil kompetensiyasining tarkibiy qismlari

Raqamli muhitda quyidagi kompetensiyalar rivojlanishi mumkin:

1. Analitik fikrlash
2. Tanqidiy yondashuv
3. Axborotni saralash va tahlil qilish
4. Kommunikativ kompetensiya
5. Ijodiy tafakkur

Adabiy tahlilda analitik fikrlash – bu matnni chuqur tushunish, uning tuzilishi, mazmuni va san'atkorlik jihatlarni tizimli ravishda tahlil qilish qobiliyatidir. Bu faqat hikoya yoki she'rni o'qish bilan cheklanmaydi, balki uning elementlarini ajratib, har birining ahamiyatini baholashni talab qiladi.

Analitik fikrlash matnning struktur elementlarini aniqlash bilan boshlanadi:

1. Syujet – voqealar rivoji, ularning mantiqiy ketma-ketligi.
2. Personajlar – ularning xarakteri, motivatsiyasi, o'zgarish jarayoni.
3. Mavzu va g'oya – asar orqali muallif yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr.
4. Muhit – vaqt, makon, ijtimoiy kontekst.



Adabiy tahlilda tanqidiy yondashuv (kritik yondashuv) – bu adabiyot asarini chuqur va tizimli ravishda tahlil qilish, uning mazmuni, shakli, uslubi, falsafiy-ijtimoiy mazmuni va badiiy xususiyatlarini baholashga qaratilgan ilmiy metoddir. Bu yondashuv adabiyotshunoslikda asar haqida shunchaki fikr bildirishdan ko'ra, asosli va dalil-larga tayangan tahlilni nazarda tutadi.

Adabiy tahlilda axborotni saralash va tahlil qilish jarayoni matni chuqur tushunish hamda uning mazmuni, uslubi, g'oyasi va strukturasi haqida xulosaga kelish uchun muhim hisoblanadi.

Axborotni saralash deganda matndagi muhim va zarur ma'lumotlarni ajratib olish tushuniladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Matni diqqat bilan o'qish.** Asosiy g'oya, mavzu va asosiy qahramonlarni aniqlash, matndagi asosiy va yordamchi fikrlarni ajratish.
2. **Kerakli ma'lumotni belgilash.** Matni mavzu, g'oya, qahramonlar, voqea va uslub jihatidan tasniflash. Masalan, voqealar ketma-ketligi yoki qahramonlarning xarakteri bo'yicha ajratish.
3. **Fikrlarni tartiblash.** Matnda takroriy yoki muhim bo'lmagan ma'lumotlarni ajratib tashlash, asosiy axborotni qog'ozda yoki elektron ro'yxatda qayd qilish.

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning til va muloqot vositalarini samarali ishlatish qobiliyati bo'lib, u nafaqat grammatik jihatlarni, balki ijtimoiy, madaniy va kontekstual omillarni ham o'z ichiga oladi. H. Hymes tomonidan ilgari surilgan ushbu tushuncha tilni bilishdan tashqari, uni muloqotda qanday qo'llashni ham qamrab oladi.

Adabiy tahlilda bu tushuncha quyidagicha qo'llanadi:

1. Muallifning muloqot niyatini tushunish – asarda qaysi kommunikativ vazifa (ma'lumot berish, ta'sir o'tkazish, so'roq yoki chaqiriq) ko'zlanganini aniqlash.
2. O'quvchi yoki auditoriya bilan aloqa – asar qaysi auditoriyaga mo'ljallanganini va ularni qanday ruhiy hamda emotsional reaksiyaga undashini aniqlash.
3. Madaniy va kontekstual kodlarni tahlil qilish – til va ifodalar madaniy kontekstga bog'liq bo'lgani sababli, muallifning stilistik va lingvistik vositalari orqali kommunikativ maqsadni anglash.
4. Ijodiy tafakkur – yangi g'oyalar yaratish, muammolarga original yechim topish va o'z fikrini noodatij shaklda ifodalash qobiliyatidir.

Adabiy jarayonda ijodiy tafakkur quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

1. Matni turlicha talqin qilish.
2. Obrazlar va syujetlarni yangi kontekstda tushunish.
3. Matndan ilhomlanib yangi asar yoki fikr yaratish.

Adabiy tahlil kontekstida raqamli ta'lim muhiti – o'quvchiga individual o'quv yo'lini yaratish, resurslarga keng kirish va interaktiv tahlil imkonini beruvchi samarali vositadir. Shu bilan birga, uning muvaffaqiyati texnologik resurslar, metodik yondashuv va o'quvchining faolligiga bog'liq.

### Raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlari

Raqamli ta'lim muhiti quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- multimediali taqdimotlar orqali asar mazmunini chuqurroq anglash;
- onlayn platformalar yordamida interaktiv muhokamalar tashkil etish;
- elektron kutubxonalar orqali qo'shimcha manbalarga tezkor kirish;
- virtual sinflarda hamkorlikda ishlash imkoniyati.

Masalan, Google Classroom platformasi orqali o'quvchilar mustaqil topshiriqlarni bajarish, izohlar qoldirish va bahs-munozaralarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, Kahoot! va Quizizz kabi interaktiv vositalar matn mazmunini mustahkamlash va nazorat qilishda samarali hisoblanadi.

2022-yil yakunida "O'zbekistonda zamonaviy raqamli muhit" loyihasi tadqiqotchilari ish beruvchilar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamda talabalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalarini taqdim etdi. So'rovda qatnashgan o'qituvchilarning yarmidan ko'pi va talabalarining deyarli 90 foizi onlayn ta'lim platformalari taqdim etayotgan imkoniyatlarni yuqori baholaydi, ammo an'anaviy oliy ta'lim talabalar uchun ustuvor masala bo'lib qolmoqda.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Пашкова А.Ф., Абдурасулова Н. А. (2022). Цифровизация образования: проблемы и перспективы. Вестник Мининского университета, 8-31, 75.

### Zamonaviy texnologiyalar asosida adabiy tahlilni rivojlantirish usullari

Multimedia tahlil usuli. Badiiy asarni audio, video, infografika shaklida taqdim etish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanini o'rganishda tarixiy davr aks ettirilgan videolavhalardan foydalanish asarni yaxlit tushunishga yordam beradi.

Masalan, A. Qahhorning "Daxshat" hikoyasida insonning ruhiy holati, ichki dunyosi va atrof-muhit bilan kurashi yoritiladi. Hikoyaning asosiy qahramonlaridan biri Unsinning psixologik zo'riqishi va qo'rquvi, ichki va tashqi olam o'rtasidagi ziddiyatlari, Olimxon dodxoning shamol dahshati hamda go'riston vahimasidagi ichki dialoglari va hissiy kechinmalari tasvirlangan. Ushbu hikoyaning multimediali tahlili vizual va video proyektor vositalari yordamida boyitilsa, asar yanada tushunarli bo'ladi.

Hikoyadagi muhitni tasvirlash – qorong'i xona, shamol dahshati, sandal atrofida o'tirgan sakkizta kundosh obrazlari orqali ifodalanadi. "Daxshat"<sup>3</sup> hikoyasiga ishlangan 17-daqiqalik film tomoshasi o'quvchilarni tarix bilan yuzlashtirish bilan bir qatorda, o'sha davr odamlari yashash sharoiti, dodxo, kundosh, bo'yra, go'riston, Asqarponsot, Ganjiravon, Onhazrat, qumg'on, taloq kabi tushunchalarning falsafiy tahlilini o'rganishga yordam beradi.

Abdulla Qahhor "Daxshat" hikoyasi orqali eski zamonlardagi o'zbek ayollarining boshiga tushgan og'ir sinovlarni, ularning xo'rlik va mashaqqatlarini yorqin tasvirlaydi. Hikoya, shuningdek, insonning erksizlikdan ozodlikka intilishi, ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengib, haqiqiy hayotga erishish yo'lidagi kurashini ifodalaydi. O'quvchilar film tomoshasi orqali hikoyani ancha samarali tahlil qiladilar.

### Zamonaviy texnologiyalarning roli

Zamonaviy texnologiyalar adabiy tahlilni nafaqat osonlashtiradi, balki uning samaradorligini oshiradi. Ular bir necha yo'nalishda qo'llaniladi:

#### 1. Elektron resurslar va raqamli kutubxonalar.

Masalan, Google Books, Project Gutenberg kabi onlayn kutubxonalar orqali turli davr va janrdagi adabiy asarlarni topish mumkin. Raqamli matnlar bilan ishlash tahlil jarayonini tezlashtiradi va solishtirma tahlil imkonini beradi.

#### 2. Interaktiv ta'lim platformalari.

Kahoot!, Quizlet, Padlet kabi platformalar orqali o'quvchilar matnni o'rganish, viktorina va baholash jarayonida faol bo'ladilar. Bu usul adabiy kompetensiyani o'quvchi uchun qiziqarli va ko'ngilochar qiladi.

#### 3. Multimedia vositalari.

Video, audio va animatsion materiallar adabiy asarlarni vizual va eshitish orqali tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, dramatik sahnalarni ekranlashtirish yoki she'rlarni audio tarzda tinglash.

#### 4. Sun'iy intellekt va tahlil dasturlari.

AI matn tahlili vositalari yordamida matndagi asosiy mavzu, motivlar va semantik bog'liqliklar aniqlanishi mumkin. "AI matn tahlili" deganda sun'iy intellekt yordamida matnlarni o'rganish, tahlil qilish va ulardan foydali ma'lumotlar chiqarish tushuniladi.

AI matn tahlili yordamida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- sentiment tahlili – matnning ijobiy, salbiy yoki neytral kayfiyatini aniqlash;
- mavzuni aniqlash (topic modeling) – matnning asosiy mavzularini tasniflash;
- kalit so'zlarni ajratish – matndagi muhim so'z va iboralarni aniqlash;
- named entity recognition (NER) – matnda shaxslar, joylar, tashkilotlar kabi nomlarni aniqlash;
- tilni tushunish va javob yaratish – chatbotlar va virtual yordamchilar uchun.

Bu o'quvchiga matnni chuqur tahlil qilishni osonlashtiradi va yangi savollarni yuzaga keltiradi.

#### 5. Onlayn hamkorlik va forumlar.

Masalan, Google Classroom, Edmodo orqali o'quvchilar birgalikda tahlil qilish, fikr almashish va muhokama qilish imkoniga ega bo'ladilar.

3 <https://www.youtube.com/watch?v=PeA8wlgv4-Q>



## 6. Zamonaviy texnologiyalarning pedagogik afzalliklari.

1. Individual yondashuv – o'quvchining qiziqishiga mos materiallarni tanlash.
2. Faollik va ishtirok – interaktiv vositalar o'quvchini passiv o'rganishdan faol ishtirokchiga aylantiradi.
3. Oson va tezkor tahlil – matnni tahlil qilish, taqqoslash va diagrammalar orqali vizualizatsiya qilish imkoniyati.
4. Ijodiy yondashuvni rivojlantirish – multimedia va AI vositalari yordamida o'quvchilar o'z talqinlarini yaratishi mumkin.

Raqamli ta'lim muhitida adabiy tahlil kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni faol o'rganishga undaydi va o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytiradi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim jarayonida texnologik vositalardan samarali foydalanish o'quvchilarning adabiy savodxonligini yanada mukammal darajaga olib chiqadi.

Shu o'rinda olim M. Umarova raqamli texnologiyalar ta'lim muassasasini katta darajada o'zgartiradi va ta'lim sohasida ijtimoiylashuvning yangi shakllarini talab qiladi<sup>4</sup>, degan fikrni ilgari suradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida, raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, interaktiv platformalar, multimedia vositalari va onlayn resurslar o'quvchilarga adabiy matnlarni chuqurroq tahlil qilish, ularning mazmunini anglash va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Начало формы Конец формы

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldoshev R.R. (2022). Digitalization of higher education: prospects and risks. Law and Practice, (1), 94–102.
2. Пашкова А.Ф., Абдурасулова Н.А. (2022). Цифровизация образования: проблемы и перспективы. Вестник Мининского университета, 8–31, 75.
3. Умарова М.Х. (2020). К вопросу о цифровизации образования в Республике Узбекистан. Наука и образование сегодня, (12 (59)), 42–43.
4. <https://www.youtube.com/watch?v=PeA8wIgv4-Q>

<sup>4</sup> Умарова М. Х. (2020). К вопросу о цифровизации образования в Республике Узбекистан. Наука и образование сегодня, (12 (59)), 42-43

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.